



**Innovative Academy**  
*Research Support Center*

21



**ZAMONAVIY DUNYODA  
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA:  
NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR  
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**



**«INNOVATIVE ACADEMY» ILMIY TADQIQOTLARNI  
QO'LLAB-QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY DUNYODA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA: NAZARIY  
VA AMALIY IZLANISHLAR»NOMLI № 21-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,  
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI  
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ  
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

OpenAIRE



zenodo



**«ZAMONAVIY DUNYODA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA: NAZARIY VA  
AMALIY IZLANISHLAR» NOMLI № 21-SONLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN  
KONFERENSIYASI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2020 YIL 2-MART KUNGI «ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YILI»DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA»GI FARMONIDA KO'ZDA TUTILGAN VAZIFALARNI IJROSINI TA'MINLASH MAQSADIDA «INNOVATIVE ACADEMY RSC» MCHJ TOMONIDAN TA'SIS ETILGAN «EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (EJAR)» ILMIY-USLUBIY JURNALINING (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKASIYALARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGINING 1415-SONLI GUVOHNOMA HAMDA ISSN 2181-2020, WWW.IN-ACADEMY.UZ VEB SAYTI) «ZAMONAVIY DUNYODA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA: NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR» NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI E'LON QILINADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMI ZENODO, OPEN AIRE, OPEN ACCESS VA INTERNET ARCHIVE BAZALARIDA INDEKSLANADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA DOI RAQAMI BERILADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA MAQOLALAR QABUL QILADI:

1. PEDAGOGIKA (TURLARI BO'YICHA)
2. PSIXOLOGIYA FANLARI
3. FILOLOGIYA
4. ADABIYOTSHUNOSLIK
5. LINGVISTIKA

ESLATMA! KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMIGA KIRITILGAN MAQOLALARDAGI RAQAMLAR, MA'LUMOTLAR HAQQONIYLIGIGA VA KELITIRILGAN IQTIBOSLAR TO'G'RILIGIGA MUALLIFLAR SHAXSAN JAVOBGARDIRLAR.

## ZAMONAVIY MUSIQA MADANIYATI DARSLARI BADIY – PEDAGOGIK ASARDIR

Jumayeva Sevara Farxodovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumati 10- umumta'lim maktabi  
musiqa fani o'qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7021259>

Umumta'lim maktablari "Musiqqa madaniyati" darslarida musiqa ta'limi va tarbiyasini amalga oshira borar ekanmiz, o'qituvchi oldida o'quvchilarni eng avvalo musiqa san'atiga, o'zi o'tayotgan darsga, berilayotgan bilimlar, o'rganilayotgan kuy – qo'shiqlarga qiziqish va havas uyg'otish vazifasi turmog'i lozim. Maktabda, ayniqsa boshlang'ich sinflarda qo'shiq aytish, musiqa tinglashga bo'lgan qiziqish va moyillik, asta – sekin yoshlarning musiqa san'atiga bo'lgan ijobiy munosabatlari, qolaversa ehtiyojlarining rivojlanib, shakllanib borishida muhim o'rin tutadi. Musiqa darsi o'z tabiatiga ko'ra ham san'at, ham tarbiya darsidir. Uni rang –barang, sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o'qituvchidan katta pedagogik va professional mahorat talab qiladai. "Bolalarni san'atga o'rgatish nihoyatda murakkab" – deb ta'kidlaydi taniqli kompozitor – pedagog D.B.Kabalevskiy, - hamma murakkabligi shundaki, ularni emotsional tarzda qiziqitirmay turib chinakam san'atga o'rgatish mutlaqo mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23 sentyabrda qabul qilingan yangi tahriqdagi "Ta'lim to'g'risidagi" qonunining mazmun mohiyatidan kelib chiqib, Musiqa san'at darslarida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ilg'or usullari asosida darslarni tashkil etish bugungi fan o'qituvchilarining oldidagi birinchi vazifadir.<sup>3</sup> Zamonaviy musiqa madaniyati darslarini badiiy – pedagogik asar deb hisoblash mumkin. Chunki uni o'qituvchi o'z individual ijodidan va tajribasidan kelib chiqqan holda yaratadi.

Hozirgi kunda yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbiiq etishga bo'lgan qiziqish kundan – kunga kuchayib bormoqda. Chunki, pedagogik texnologiya va interfaol metodlar o'quvchi yoshlarni puxta bilim va malakalarni egallashlarini yengillashtiradi, qulaylik tug'diradi. Shu o'rinda biz o'zimizning amaliy tajribamizda qo'llagan ayrim texnologiyalarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

### **Raqs + tabassum.**

Bu texnologiyalardan ko'proq boshlang'ich sinflarda foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinf darsliklaridan o'rin olgan "Qari navo", "Usmoniya", "Andijon polkasi", "Dilxiroj" raqs kuylarida qo'llash yaxshi natija beradi. Bunda o'yin – raqsga jalb etilgan o'quvchilar hohlagan holatda turadilar. O'qituvchi yoqimli musiqa ostida barcha o'quvchilarni raqsga taklif etadi.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. Musiqa sizda qanday taassurot uyg'otdi?
2. Atrofdagilarning tabassumini ko'rganda nimani his qildingiz?
3. Kimni olqishi sizga ko'proq ma'qul bo'ldi? Nima uchun?
4. Keyingi safar kim bilan raqsga tushishni hohlaysiz?
5. Pantomima uslubi.

O'quvchilar doira shaklida o'tiradi. O'qituvchi o'quvchilarga cholg'u asboblarning rasmini tarqatadi. O'quvchilarning vazifasi ushbu cholg'u asboblarda qanday holatda kuyni ijro etilishini harakatlar bilan ko'rsatishdan iborat. Qolganlar esa kuzatib, qaysi cholg'u asbobi ko'rsatilayotganligini topishi kerak. Masalan, rasmda doira surati aks etgan bo'lsa, stulda o'tirgan holda qo'l harakati bilan ko'rsatib beradi, karnay, surnay, g'ijjak, rubob, dutor, fortepiano, chol'u asboblari mos qo'l harakatlari bilan tasvirlanadi. 5 – 6 ta o'quvchining chiqishidan so'ng muhokama qilinadi.<sup>3</sup>

### **3. Marhamat davom ettir. (takrorlash darslari uchun)**

Sinf ikki guruhga bo'linadi. Oldingi darslarda o'rgatilgan qo'shiqlardan birini 1 – guruh boshlab beradi, birinchi kuplet kuylanadi, 2 – guruh davom ettiradi. Qaysi guruh to'g'ri, aniq davom ettirsa u o'lib bo'ladi va 2 – qo'shiqni tanlash huquqiga ega bo'ladi. 3 ta qo'shiqdan keyin mutloq g'olib aniqlanadi va baholanadi.

### **4. “Bilag'onlar ko'chasi” uslubi.**

Bu texnologiyada o'quvchilar guruhlariga bo'linadi (4-5 ta ), har bir guruhga bastakorlarning portretlari ko'rsatiladi. O'quvchilar bastakorlarning hayoti, faoliyati, asralari nomlarini aytishadi, asarlaridan ayrim parchalarni kuylab berishadi.

### **5. “Jumboq ko'chasi” uslubi.**

Bu uslubda guruhlariga bo'lingan o'quvchilar e'tiboriga rebus yechish vazifasi yuklatiladi.

**Tarozi uslubi.** Mazkur usul o'tgan mavzularni ko'proq dalillar keltirgan holda qisqa va lo'nda ifodalab, boshqa guruh ishtirokchilarini javoblari bilan solishtiriladi. Aniq, to'g'ri javob bergan guruh g'olib hisoblanadi. O'quvchilarni fikrlashga, mushohada qilishga, o'z bilimi, topqirligini va zukkoligini namoyish qilishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni qo'llash dars jarayonini demokratlashtirish bilan birga o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini, o'quvchilarni ijodkorligini rivojlantiradi.

Interfaol metodlar – o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida darsda ijodiy muhit yaratish, dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash mulohaza yuritish, o'z munosabatini bildirish ko'nikmalarini shakllantirish omilidir. Bunday metodlarda o'quvchi o'zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda, jamoa bo'lib muammo va savollarga javob

topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baho beradi, yozadi, soʻzlaydi, dalil hamda asoslar keltirish bilan qoʻyilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa oʻquvchilarning xotirasida mustahkam oʻrnashadi.

**1. Kichik guruhlarda ishlash.** Musiqa darslarida guruhlarda ishlash samaradorlikni oshiradi oʻquvchilar musiqani tinglashda va ijro etishda qulay usuldir.

2. Kichik guruhlar shakllantiriladi. Kichik guruhdagi oʻquvchilarning soni 3 – 5 tadan oshmasligi kerak, ammo topshiriq, sinf xususiyatlariga bogʻliq tarzda guruh soni oʻzgarishi mumkin.

Kichik guruhlarda ishlayotganda guruh ishtirokchilari oʻrtasida vazifalarni taqsimlagan maʼqul. Masalan, bir oʻquvchi munozarani yuritadi, ikkinchisi qabul qiluvchi qarorni yozib boradi, uchinchi ajratilgan vaqtni nazorat qiladi. Toʻrtinchi esa guruh qarorini taqdim etadi va h. k. Odatda ikki asosiy usuldan foydalangan holda sinf guruhlariga ajratiladi. Birinchisida oʻquvchilar hohishiga koʻra, ikkinchisida esa hisoblash uslubi bilan ajratiladi. (1 – 3, 2 - 4)

**3. Tarmoqlar (Klaster) metodi.**

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya boʻlib, u oʻquvchilarni biror bir mavzuni oʻrganishlariga yordam berib, mavzu haqida aniq fikr, tushunchani erkin va ochiq ravishda ketma – ketlik bilan tarmoqlashga oʻrgatadi. Bu biron bir mavzuni chuqur oʻrganish, oʻquvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun yordam beradi. Mavzu boʻyicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.Mirziyoyev “Maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur” T “Xalq soʻzi” gazetasi 24.09.2019y
2. “Oʻzbekiston Respublikasining “Ta’lim toʻgʻrisidagi qonuni” 23.09.2020 y Lex.uz
3. Sharipova G. Musiqa oʻqitish metodikasi. TDPU, 2004 – yil.

## **BOLALARDA ODAMOVILIKNING SABABLARI, ASOSIY BELGILARI VA ULAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOKORREKSION ISHLAR.**

**AVEZOV OLMOS RAVSHANOVICH<sup>1</sup>**

**ISTAMOVA LAYLO RAJABOVNA<sup>2</sup>**

**<sup>1</sup>BuxDu psixologiya kafedrası dotsenti**

**<sup>2</sup>Buxoro davlat universiteti talabasi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7026939>**

### **ANNOTATSIYA**

Shunday holatlar mavjudki, bunda bola atrofidagi olamni, uning shaxsiy ichki dunyosiga da'vo qiladigan insonlar yashaydigan noqulay, adovatli joy deb biladi. U o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi va hech kim bilan, hatto tengdoshlari bilan muloqot qilishni istamaydi. Agar bola odamovi bo'lib o'ssa, ota-ona darhol, kechiktirmasdan harakatga tushishi kerak. Vaziyat nafaqat o'z-o'zidan o'zgarmaydi, balki, yoshi ulg'aygan sari faqat chuqurlashadi.

**Kalit so'zlar:** odamovilik, uyatchanglik, munosabat, holat, vaziyat, psixika, muhit, ota-ona, bola, psixokorreksiya, muloqot, adaptatsiya, munosabat.

THE MAIN SYMPTOMS OF THE CAUSES OF DEPRAVITY IN CHILDREN AND THE PSYCHOCORRECTIVE WORK CARRIED OUT WITH THEM

### **ABSTRACT**

There are situations in which the child perceives the world around him as an uncomfortable, hostile place inhabited by people who claim his private inner world. He remains with himself and does not communicate with anyone, even with peers does not want to do. If a child grows up to be a maniac, parents should act immediately with out delay. The condition not only does not change on its own, but only deepens with age.

**Key words:** humanity, childishness, attitude, state, situation, psyche, environment, parents, child, psychocorrection, communication, adaptation, attitude.

### **KIRISH**

**Odamovi bola - bu qanday bola?** Avvalo, odamovilik va uyatchanlik o'rtasidagi farqni anglab olish kerak. Va, albatta, bu farq mavjud. Uyatchan bola muloqot qilishni istaydi, lekin o'ziga ishonch bo'lmaganligi tufayli bu istagini hayotda amalga oshirish uchun jasorat topa olmaydi. Bola boshqalar bilan muloqot qilish vaqtida juda hayajonlanadi va tashvishlanadi, bu esa ko'pincha ijtimoiylashuvida, ya'ni jamiyatga moslashuvida qiyinchiliklarga olib keladi. Odamovi bolada uning atrofidagi kishilar bilan muloqot qilish uchun deyarli hech qanday intilish bo'lmaydi. U yakkalanib qoladi va muloqotga, ijtimoiy o'zaro

munosabatga muhtojlik sezmaydi. Agar uyatchan bolalarni boshqalar bilan to'g'ri muloqot qilishga, o'zlarini yengishga, muloqotdan qo'rqmaslikka o'rgatish kerak bo'lsa, odamovi bolalarni esa o'zaro munosabatga kirishishga undash bilan, ularda muloqot qilish istagini uyg'otish kerak bo'ladi. Odatda, ota-onalar farzandlarida sharoitga moslasha olmaslik xususiyati mavjudligidan xavotirga tushadilar. Bolakay haqiqatdan ham odamovi bo'lib o'sayaptimi yoki yo'qligini aniq bilish uchun bu holatning namoyon bo'lish belgilari bilan tanishib chiqish kerak.

**Bolalardagi odamovilikning namoyon bo'lishining asosiy belgilarini ko'rib chiqamiz: Indamaslik.** Odamovi bola o'z ta'assurotlari va fikrlari bilan o'rtoqlashmasdan, juda oz, va faqatgina mohiyati bo'yicha gapiradi. Har bir hakatlarini o'ylab qiladi. Agar bolani kuzatsangiz, u har qanday ishni oldindan rejalashtirgandek tuyulishi mumkin (va bu haqiqatan ham shunday), uning harakatlarida spontanlik (tasodifan bajaradigan ishlar) yo'q.

**Ehtiyotkorlik.** Bola o'ziga ishonmaydi, yangi narsalardan qo'rqadi. Kompaniyalarda ko'pgina begona kishilarning bo'lishi uni ruhiy noqulaylikka olib keladi.

**Boshqalardan chetlashganlik.** Bolalar bog'chasida, maktabda yoki o'yin maydonida tengdoshlar bilan muloqot jimgina kuzatish yoki boshqalarga nisbatan butunlay e'tiborsiz bo'lish bilan tugaydi.

Bolaning do'stlar doirasi juda tor va ko'pincha hattoki yaqin do'stini hamko'rishishni xohlamaydi. O'z fikrlarini jamoatchilik oldida ifodalashga qodir emas. Bola har qanday og'zaki chiqishlarga qiyinchilik bilan erishadi, og'ir stress holatini his qiladi. Bunday holda bolada yozma nutqi yaxshi rivojlangan bo'lishi mumkin.

**Ichidagini hech kim bilan bo'lishmaslik.**

Bolaga qaraganingizda uning ichida his-tuyg'u va fikrlar jo'shqin urayotganini sezish mumkin, lekin u hatto onasi bilan ham bo'lishishga shoshilmaydi. Ko'pincha odamovi bolalar to'g'ridan-to'g'ri ko'z bilan aloqa qilishdan qochadilar va shuning uchun suhbatdoshning ko'ziga deyarli hech qachon tik qaramaydilar. Ushbu bolakaylarning aksariyati jonli tarzda imo-ishoralar qilmaydilar; ko'pincha ularning tana harakatlari erkin emas, qo'llari esa doimo tana bo'ylab pastga tushib ketadi yoki qovushtirilgan holda bo'ladi.

ASOSIY QISM

**Bolalardagi odamovilikning mumkin bo'lgan sabablari**

Ehtimol, bola nozik ruhiy tuzilmaga ega bo'lishi mumkin. Uning ko'ngli nozik bo'lib, shaxsiy dunyosining chegaralarini belgilashga harakat qiladi. Buning ajablanarli joyi yo'q, ayniqsa, uning ota-onasi ham xuddi shu tarzda o'zlarini



tutsalar (masalan, uyga kelganlarida oilaviy muloqot o'rniga, ular gadgetlarga sho'ng'ib ketadilar, shunday tarzda qiyin o'tgan kundan keyin dam olishadi).

Bolalar tashqi olam bilan taqlid orqali muloqot qilishni o'rganadilar; ular ko'pincha ota-onalarining odatlarini o'zlarida mujassamlab, ularning xulq-atvorini qaytaradilar. Odamovilikning boshqa keng tarqalgan sabablariga quyidagilarni kiritish mumkin: o'ziga ishonmaslik; noto'g'ri tushunishlaridan va mojaroli vaziyatga to'qnashishdan qo'rqish; erta bolalik davrida shakllangan tor muloqot doirasi; uzoq muddatli kasallik, u bu vaqt davomida do'stona munosabatlarni esidan chiqarib yuborgan bo'lishi mumkin; bolani doimiy nazorat qilish, uning shaxsiy chegaralarini buzish; ruhiy jarohatlanish (yaqinlarining kasalligi yoki o'limi, ota-onasining ajralishi).

Odamovilikning sababi o'tmishda sodir bo'lgan noxush holat ham bo'lishi mumkin. Misol uchun, bola chin dildan o'z his-tuyg'ularini ifodalaganda uning ustidan kulgan bo'lishlari mumkin. Yaqinlari tomondan sovuq munosabat va haddan ziyod qattiq tarbiya qilish ham odamovilikka sabab bo'lishi mumkin.

### **Bolalardagi odamovilik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?**

Bolalik yillari hayajon va kechinmalarga to'la. Bu shaxsiy shakllanish davri, tengdoshlar bilan aloqa o'rnatish va jamoada o'z o'rnini topish. Odamovilik to'la qonli aloqalarni yo'lga qo'yishda jiddiy to'siq bo'lishi mumkin va ijtimoiy chetlanishlarga olib kelishi mumkin.

Odamovi bola voyaga yetgan davrida odamlar bilan mustahkam ishonch munosabatlarini o'rnatishi, shaxsiy hayotini yo'lga qo'yishi, martaba zinapoyasidan ko'tarilishi qiyin bo'ladi. Ortib borayotan o'ziga ishonchsizlik, qoqilishdan qo'rqish, o'z-o'zini ifodalashning imkoni yo'qligi tushkunlikka tushish va boshqa halokatli holatlarning sababchisi bo'lishi mumkin.

Odamovi bolani qanday tarbiyalash kerak?

Ba'zi bolalar juda imillagan, odamovi va og'ir-bosiq bo'ladi. Ular juda kichkinaligidanoq bolalarni uzoqdan kuzatishni yaxshi ko'radi. Bolalar bilan birga o'ynamaydi, to'rt yoshga to'lganda zo'rg'a gapirishni boshlaydi. Bunday tabiatli bolalarni ruhshunoslar flegmatiklar deb ataydi.

Flegmatik bolaning tabiatini qanday qilib to'g'rilash mumkin?  
Odamoviligidan boshlaymiz

Bola yolg'izlikni yaxshi ko'radi, tengdoshlari bilan kam o'ynaydi. Kech gapirish, atrofdagi muhit to'g'risidagi tasavvurning kamligi va haddan tashqari tortinchoqlik shu tufayli paydo bo'ladi.

Iloji boricha bola bilan ko'proq muloqotda bo'lish, birga qo'shib o'ynashga harakat qilish, mehmonga, do'konlarga, jamoat joylariga birga olib yurish kerak.

Bolalar bog'chasi alohida band bo'lib hisoblanadi

Bir tomondan, erkin bo'lib o'sishi uchun bolaga kollektiv kerak. Ikkinchi tomondan – agar hali erta bo'lsa, u yanada battarroq o'z-o'zi bilan bo'lib qolishi mumkin. Bolalar bog'chasi uchun eng muvofiq yosh – 3 yosh hisoblanadi. Agar u bog'chada ovqat yemasa, tarbiyachi va bolalarga e'tiborsiz bo'lsa – uni vaqtincha u yerdan olishni o'ylab ko'ring.

#### Sustkashlik

Bolani jalb qilish kerak. Buning uchun qum soatlar juda yaxshi. 20 daqiqalik qum soat sotib oling, uni teskari qilib qo'ying va qumlar to'kilib bo'lguncha bajarish kerak bo'lgan topshiriq bering.

#### Erinchoqlik

Bu yerda ham jalb qilish juda muhim. Topshiriq bering, u endi katta bo'lganini va siz unga ishonishingizni ayting. Va albatta rag'batlantiring. Baqirish bilan hech narsaga erisha olmaysiz – flegmatiklar o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi va sizni eshitmaydi.

#### O'sishning kechikishi

Toqatlilik talab qilinadigan rivojlantiruvchi o'yinlar bilan shug'ullanish kerak, chunki flegmatiklar juda sabrli bo'ladi. Buning uchun uyda har kuni 15-30 daqiqa shug'ullanish yetarli bo'ladi.

#### Odamovilik

O'z hissiyotlarini ifodalash juda muhim. Buning uchun timsoh tipidagi o'yinlar mos keladi: qayerda qiliq qilish, qayerda mimika bilan ishlab o'z ichki dunyosini tushuntirish. O'z hissiyotlaringizni ko'rsatishdan tortinmang.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shunday holatlar mavjudki, bunda bola atrofidagi olamni, uning shaxsiy ichki dunyosiga da'vo qiladigan insonlar yashaydigan noqulay, adovatli joy deb biladi. U o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi va hech kim bilan, hatto tengdoshlari bilan muloqot qilishni istamaydi. Agar bola odamovi bo'lib o'ssa, ota-ona darhol, kechiktirmasdan harakatga tushishi kerak. Vaziyat nafaqat o'z-o'zidan o'zgarmaydi, balki, yoshi ulg'aygan sari faqat chuqurlashadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.E.G'ozdiyev "Yosh davrlari psixologiyasi"- Toshkent
- 2.E.G'ozdiyev "Ontogenez " - Toshkent 2010.
- 3.Z.Nishonova , D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarov "Rivojlanish psixologiyasi". "Pedagogik psixologiya " Toshkent 2017
- 4.F.I.Xaydarov , N.I.Xalilova "Umumiy psixologiya" Toshkent 2010
- 5.Z.T.Nishonova, D.Qarshiyeva, N.Atabayeva, Z.Qurbonova "Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya " Toshkent 2014
- 6.Z.T.Nishonova, "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi "

7.SH.A.Dostmurodova, Z.T.Nishonova, S.N.Jalilova "Yosh davrlari va pedagogic psixologiya" Toshkent 2013

## **SHAXSNING FUNKSIONAL-EMOTSIONAL HOLATLARI DIAGNOSTIKASI**

**Avezov Olmos Ravshanovich<sup>1</sup>**

**dotsenti**

**olmosavezov85@gmail.com**

**Shavkatova Shaxnoza Po'lot qizi<sup>2</sup>**

**shahnozashavkatova20@gmail.com**

**Pedagogika fakulteti talabasi**

**<sup>1</sup>Buxoro davlat Pedagogika instituti**

**<sup>2</sup>Buxoro davlat universiteti**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7030960>**

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada hissiyot va emotsiyaning tavsifi va insonlarda emotsiyaning bunyod bo'lishi haqida ma'lumotlar berilgan. Hissiyotning boshqa bilish jarayonlari bilan aloqasi yoritib berilgan. Shaxsning funksional-emotsional holatlarini diagnostika qilish to'g'risida fikr mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: hissiyot, emotsiya, xarakter, kayfiyat, ehtiros, idrok, affekt, layoqat.

Kirish: Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo'lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi:

a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini;

b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko'rsatadigan obyektlarga subyekt

sifatida qatnashishi;

v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlar va hokazo.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Hissiyot tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi jumladan; A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida hissiyot – kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabatdir. M.Vohidovning «Bolalar psixologiyasi» o'quv qo'llanmasida hissiyot deb – tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo'lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishga aytiladi. Q.Turg'unov muallifligidagi lug'atda hissiyot-shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardan iborat. Professor E.G'oziyev muallifligidagi «Umumiy psixologiya» darsligida hissiyot odamda, tirik mavjudotlar miyasida,

ya'ni shaxslarning ehtiyojarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi obyektlarga nisbatan uning munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo'llaniladi.

Emotsiya – shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi.

Natijalar tahlili Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, hozirgi vaqtgacha hissiyotlar tabiatiga nisbatan yagona nuqtai nazar mavjud emas. Hissiyotlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar hozirda ham o'tkazilib kelinmoqda. Hozirda to'plangan tajribaviy va nazariy material hissiyotlar tabiatining ikkilanganligidan dalolat beradi. Bir tomondan, hissiyotlar – turli psixik hodisalar, shuningdek, kognitiv jarayonlar, inson qadriyatlarini tizimi tuzilmasining xususiyatlari va boshqalar kabi sub'ektiv omillar hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, hissiyotlar individning fiziologik xususiyatlari bilan belgilanadi. Hissiyotlar ma'lum seskantiruvchi ta'siri natijasida paydo bo'ladi, bu esa inson moslashishi va xulq-atvorining boshqarish mexanizmlari ifodasining xuddi o'zginasidir. Inson kayfiyati, affektlari, hislari va ehtirolari yig'indisi uning emotsional hayotini va emotsionallik kabi individual sifatni tashkil etadi. Emotsionallikni insonning hayotiga tegishli bo'lgan turli xil sharoitlardan hissiyotli ta'sirlanishga moyillik, kayfiyatdan ehtirosigacha –kuchi va sifati turlicha bo'lgan emotsiyalarni kechirish layoqati, shuningdek, emotsiyalar kuchining tafakkur va xulq-atvorga ta'siri sifatida ta'riflash mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib ayta olamanki, har bir insonda atrof-muhitga, voqelikka, odamlarga va o'ziga nisbatan ichki salbiy va ijobiy kechinmalarni boshdan kechiradi. Hissiyotlar mavjudligi ham insoniyatni bir-biriga jipslashtirish, mehr-oqibatni yuzaga keltirishdek ulkan vazifani amalga oshiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Z.T.Nishonova va boshqalar. Psixodiagnostika. o'quv qo'llanma. T.: 2008
- 2.T.R. Bekmirov "Shaxsning emotsional irodaviy holatlari" uslubiy qo'llanma 2022
- 3.Z.T.Nishonova, Z.Qurbonova, S.Abdiyeva. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkurbo'stoni" -2011..
- 4.R.Y.Toshimov, E.G'.G'oziyev. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: TDPU - 2004.
- 5.E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. T.:2012.
6. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. М.:2001

7. Немов Р.С. Психология. 3-книга. М.: 2003.

8. Романова Э.С. Психологическая диагностика, Спб.:

## MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION METODLARNI TAHLILI

Sharobidinova Moxiraposhsha Parfiboyevna  
Andijon Olimpya va paralimpiya zaxiralari  
kolleji matematika fani o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7031092>

Bugungi kunda ta'lim jarayonida barcha yo'nalishlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Innovatsion texnologiyalarni qo'llashning asosiy omili bu, ta'limning yangi tarkibini ishlab chiqish, o'qitishning yangi usullarini qo'llash, ta'limning tashkiliy-texnologik asosini ishlab chiqish, uni amalga oshirish shartlari, ta'lim sifatini oshirishga yo'nalishi, ta'lim oluvchi shaxsini har tomonlama va kasbiy mahoratini rivojlantirishdir.

Metod so'zi grekcha so'z bo'lib, "yo'l ko'rsatish" demakdir. Ta'lim metodi tushunchasi esa hozirgi zamon metodiga va didaktik fanlardagi asosiy tushunchalaridan biridir, ammo bu tushuncha yaqin vaqtlarga qadar turli metodik adabiyotlarda turli mazmunda qo'llanib kelinar edi. Hozirgi zamon didaktikasida, jumladan matematika o'qitish metodikasi fanidan ta'lim metodning muammolari umumiy holda hal qilingan bo'lib, u o'zining quyidagi ikki tomoni bilan xarakterlanadi.

A) o'qitish (o'qituvchining faoliyati);

V) o'rganish (o'qituvchilarning ongi bilan faoliyati);

Maktab matematika kursdagi ta'lim metodlarini quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin.

1. Ilmiy izlanish metodlari (ko'zatish, tajriba taqqoslash, analiz va sintez, umumlashtirish, abstraktsiyalash konkretlashtirish va klassifikatsiyalash).
2. O'qitish metodlari (evristik metod, dasturlashtirilgan ta'lim metodi, muammoli ta'lim metodi, ma'ruza va suhbat metodlari).
3. Xulosa chiqarish metodlari (induktsiya deduktsiya va analiz).

«Blis o'yin» metodi - harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo'la olishga yordam beradi.

«Bumerang» texnikasi - o'quvchi-o'quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materiallarni yoddan saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olish

hamda bir dars davomida barcha o'quvchi o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan. – “Bumerang” texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqli shakllantirishga, imkoniyat yaratadi; xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dallillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

“Sinkveyn” metodi- ta'lim oluvchilarni axborotlarni qisqa bayon etishga o'rgatadi, hamda olingan ma'lumotlar ustida chuqur ilanishga chorlaydi.

“Qora quti” metodi - o'quvchi-o'quvchilar bu metod asosida yechiladigan muammolar aniq vaziyatni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi, muammolar sababi yo'l-yo'lakay aniqlanadi.

“Loyiha” metodi - ta'lim oluvchilarning invidual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar.

“Rezyume” metodi - o'quvchi-o'quvchilarni biror mavzuning ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlarini belgilashni o'rganadi. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Shunday ekan, malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichida ta'limni samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirish lozim. Mazkur metodik ishlanmada pedagogik texnologiyaga yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirish, ya'ni o'quv maqsadlarini aniqlashtirish orqali muayyan natijaga hamda ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashlariga erishish shu yo'l bilan ta'lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish kabilar xususida so'z yuritiladi. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning ilg'or usullarini qo'llash, o'qitish jarayonida yuqori natajalarga olib keladi. Ta'lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli- tuman zamonaviy usullar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkiliy qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik- kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu usullar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Interfaol usullarning ta'lim jarayonidagi



samaradorligini quyidagicha tasvirlash mumkin. Metod tanlash nafaqat o'quv maqsadidan, balki o'quv material mazmuniga va bu fanning murakkabligiga bog'liq. Bundan tashqari metodlarni tanlashda o'quvchilarning soni, ularning o'quv imkoniyatlari, ta'limning davomiyligi, o'quv-moddiy sharoitlar va o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Matematika fanidan o'tkazilgan ta'lim sifati monitoringi natijalarini tahlil qilgan holda, o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan mavzularni aniqlash, bu mavzularni multimedia vositalari, pedagogik texnologiyalar yordamida o'tish yo'llarini izlab topish kerak. 5-sinfda "Ko'p xonali sonlarning yozilishi va o'qilishi", "Harakatga doir masalalar", "Tenglamalar yordamida masalalar yechish", "Qoldiqli bo'lish" mavzulariga oid vazifalarni bajarishda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yilganligi kuzatilgan. O'quvchi ko'p xonali sonlarning o'qilishini bilish uchun asosan sonning tuzilish jadvali ustida ishlashi, sonlarni sinflarga ajratish ko'nikmasini hosil qilishi zarur.

Hayotiy masalalar yordamida harfli ifodalar bilan ishlash malakasi oshirilsa, masalalar yechish muammosi tenglamalar yordamida hal etiladi. Aralash kasrlarga oid misollar amaliyotdan olinib, og'zaki bajartirilsa, qoldiqli bo'lishga doir masalalar yechimini topishda yordam beradi. 6-sinfda "Kasrlar ustida amallar", "Matnli masalalar", "Ko'paytirishning taqsimot qonuni" mavzularida o'quvchilar qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Guruhlarda ishlash usuli bilan bo'laklarga doir masalalar ustida misol namunalari berilib, ko'rgazmali darslar tashkil etilsa, o'quvchi kasrlar ustida amallar bajarish ko'nikmasini o'zlashtiradi. Matnli masalalar hayotiy masalalar yordamida yechim topadi. Taqsimot qonuni asosan oiladan boshlanadi. Ya'ni, oila budjeti va farzandlarga vazifalarning taqsimlanishi asosida sodda va oson tushuntiriladi. Qulay usul bilan ko'paytirish asosan karrali sonlar ustida amallar bajarish orqali amalga oshiriladi. 7-sinfda "Algebraik kasrlar ustida birgalikda bajariladigan amallar", "Matnli masalalarning shartiga mos bo'lgan harfiy ifodalar tuzish", "Natural ko'rsatkichli darajaning xossalari", "Sonni berilgan nisbatda bo'lish", "Davriy kasrni oddiy kasrga aylantirish", "Sonning foizini topishga doir murakkab masalalarni yechish" mavzusidagi misol va masalalarni yechishda qiyinchiliklar kuzatimoqda. 5-sinf darsligidan olingan harfli va sonli, o'rniga qo'yishga doir misollar ko'proq takrorlansa, yuqoridagi algebraik kasrlar va matnli masalalarga oid mavzularni o'quvchi ongiga singdirish birmuncha yengillashadi. "Daraja"

mavzusini tushuntirishda karra jadvalidagi istalgan bir sonni o'ziga o'zini ko'paytirish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning o'rganilayotgan soha bo'yicha bilimlarni esga tushirish, jonlantirish yangi bilimni o'zlashtirishga asos bo'ladi deb ko'rsatadi. Bilimlar va tayyorgarlikni aniqlash o'quvchini faollashtirish va bilim o'zlashtirishga ijobiy motivni keltirib chiqaradi. Demak, ta'limda innovatsion texnologiyalarni turli vositalar, metodlar sifatii tamoyillar asosida ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi orqali, ta'limiy samaradorlik (bilimlarni o'zlartirish; ijodiy faollikni oshirish; amaliy ko'nikma va malakalarni egallash)ga erishishni ta'minlaydi.

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MILLIY SINFLARDA YOZMA ISH  
MASHG'ULOTLARINI OLIB BORISH, BAHOLASH VA SAMARADORLIKGA  
ERISHISHNING INTERAKTIV USULLARI**

**Sartayeva SHahnoza Saidaminovna**

**10 Maktab Ingliz tili fani o'qituvchisi, Toshkent tumani,**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7032199>**

Toshkent viloyati Yurtimizda rivojlanib borayaotgan hayot tarzimizning asosiy sabablaridan biri bu ta'limga bo'lgan katta e'tibor bo'lsa keyingisi bu yoshlarning salohiyatini oshirishga, qo'llab quvvatlashga bo'lgan katta imkoniyatlarda ko'rishiz mumkin. Prezidentimiz SH.Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 19-mayda qabul qilingan PQ 5117 sonli "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XORIJIY TILLARNI O'RGANISHNI OMMALASHTIRISH FAOLYATINI SIFAT JIHATDAN YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH TO'G'RISIDA" gi qarori Xalq Ta'limi tizimi uchun, yurtimiz kelajagi uchun juda katta yangilik bo'ldi. Ta'lim tizimi tubdan yangilash bu pedagoglarimizning salohiyatini oshirishni, ularni Xalqaro tajribalarni egallagan holda dars o'tish mahoratlarini oshirib borishni talab qiladi. Jahonning rivojlangan davlatlari ta'lim tizimiga asoslangan o'quvchilarimizni Xalqaro baholash, test tizimlariga tayyorlab borish yo'lga qo'yilmoqda.

Hozirgi kunda jamiyatimizning har bir sohasida chet tiliga qaratilgan e'tibor va talab ortib bormoqda. O'z sohasining yetuk mutahasisi bo'lmoqchi bo'lgan har bir inson biror bir chet tilini bilish Sertifikatiga ega bo'lishi lozim. Sertifikatga ega bo'lish esa boshqa hamkasblar orasida katta ustuvorlikka erishishdir. Davlat tilidan tashqari biror bir chet tilini biladigan hodim esa soha yetakchisi, xalqaro aloqalarning mutahasisi, jamiyatning ishongan shahsi hisoblanadi. Shuning uchun Oliy va Xalq Ta'lim tizimida kadrlarni Sertifikatlashning yangi tizimlari joriy qilinyapti.

